

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 101.1

**YOSHLARDA TEXNIKAVIY-ESTETIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING
METODOLOGIK ASPEKTLARI****МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ТЕХНИКО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ****METHODOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING TECHNICAL-AESTHETIC CULTURE IN
YOUTH****Soxibov Raxmonali Jumadilayevich**

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning mexanizmlari va tizimini takomillashtirishning samaradorligi, yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari o'rganilgan. Shuningdek, yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni rivojlantirishning metodologik aspektlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития техноэтической культуры молодежи, эффективность совершенствования механизмов и системы развития техноэтической культуры молодежи, социально-философские факторы развития техноэтической культуры молодежи. Анализируются социально-философские аспекты развития техноэтической культуры молодежи.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of technoethical culture in young people, the effectiveness of improving the mechanisms and system of developing technoethical culture in young people, the socio-philosophical factors of developing technoethical culture in young people. Also, the socio-philosophical aspects of developing technoethical culture in young people are analyzed.

Kalit so'zlar: texnikaviy-estetik madaniyat, jamiyat, modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy, individual, mexanizm, texnologiya, madaniyat, konseptual-aksiologik asos.

Ключевые слова: технико-эстетическая культура, общество, модернизация, инновация, социальный, индивид, механизм, технология, культура, концептуально-аксиологическая основа.

Key words: technical-aesthetic culture, society, modernization, innovation, social, individual, mechanism, technology, culture, conceptual-axiological basis.

KIRISH

Bugungi kunda texnikaviy-estetik munosabatlar va texnikaviy-estetik madaniyatni shakllantirish orqali texnikani yaratish hamda undan foydalanish jarayonlarini insonparvarlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnikaviy-estetik munosabatlar – texnika va texnologiyalarning yaratilishi, qo'llanilishi hamda ularning inson va jamiyat hayotiga ta'sirini axloqiy-mezonlar asosida baholashga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida – zamonaviy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Jamiyatning barcha bo'g'inlarida texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish natijasida tubdan ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Texnik imkoniyatlar inson hayotini yengillashtirib, masofalarni qisqartirib, og'ir ishlarni avtomatlashtirish orqali hayot sifatini oshirmoqda. Shu bilan birga, texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti insonning "mashinalashuvi", ya'ni texnikaga haddan ortiq qaram bo'lib qolishi kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning mexanizmlari va tizimini takomillashtirishning samaradorligi, yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari kabi masalalar J.Martin, X.Bek, F.Dessauer, S.Xoking, N.Vig, J.Ellyul, M.Xaydegger, K.Yaspers, V.S.Stepanov, B.Stepin, M.I.Shadov, Yu.A.Chernegov, U.M.Bazarova,

U.A.O'rinov, M.B.O'razova, D.M.Fayzullayeva, O.A.Abduquddusov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda texnika tabiatini aniqlash masalasining naqadar muhim ekanligini tushuntirishning o'zi ortiqcha. Texnika fenomen sifatida nafaqat mashinalar va mehnat qurollari majmuasi, balki texnik inshootlar, hatto inson faoliyati ta'sirida shakllangan texnik muhit sifatida ham amal qiladi. Zero, insonning ustozlardan ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish va o'rganish jarayonida qiyinchiliklardan qo'rqmasligi, kasb-hunar egallashga chin dildan qiziqishi uning ma'naviy-texnik salohiyatini oshiradi. Shunday bo'lgandagina inson kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'la oladi. Texnikaning fenomenal xususiyatlariga, avvalo, texnikada foydalaniladigan bilimlar, texnikani muhokama qilishda qo'llaniladigan turli madaniy "matnlar" hamda kishilarning texnik xulq-atvori kiradi. Bu jihatlarni bilish texnika tabiatini anglashga, undan samarali foydalanishga imkon beradi. Texnika tabiatini va uning gumanistik xarakterini ta'lim muhitida o'rganish va o'rgatish mas'uliyati bevosita texnikaviy-estetik madaniyat rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Texnika haqidagi mulohazalar ko'pincha ushbu fenomenning g'oyasi va mohiyatini aniqlash, uning madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'rnini tushunish zaruriyatini yuzaga keltiradi. G'arb olimi J. Martin ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda sayyoramizga yetkazilgan zarar oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, sayyoramizning o'zini yo'q qilib yuborish osonroq ekanligi" haqiqatini tan olgan holda, u "bu muammoni texnologiya yaratgan, ammo uning yagona yechimi texnologiya taraqqiyotini to'xtatish emas, balki uni har tomonlama insoniylashtirishdir" deydi. Texnologiyadan butunlay voz kechish yoki uni rivojlanish jarayonidan chiqarish insoniyatni misli ko'rilmagan ehtiyoj va tanqislikka mahkum etadi. Shuning uchun tabiat bilan uyg'un, ekologik va madaniy me'yorlarga mos texnologiyalarni tanlash va rivojlantirish zarur.

Shunday qilib, texnika va texnologiyalarni insoniylashtirish, ularni tabiat hamda inson bilan muvofiq holatga keltirish texnikaviy-estetik madaniyatning asosiy strategik yo'nalishidir. Biroq zamonaviy texnogen sivilizatsiyani insoniylashtirish yo'lidagi intilishlar ko'plab murakkab ijtimoiy, madaniy va falsafiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Jamiyatda texnikadan ratsional foydalanish, uni faqat ezgu maqsadlar yo'lida safarbar etish, hamda texnoetik madaniyatni shakllantirish strategik vazifalardan biriga aylangan. Bu jarayonda ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. O'qitishning boshlang'ich bosqichlaridanoq o'quvchi-yoshlarda texnikadan foydalanish madaniyatini, texnikaviy-estetik madaniyatni shakllantirish, ularda texnologiyaga mutlaq qaram bo'lib qolishning oldini olishga qaratilgan ta'limni rivojlantirish talab etiladi. Ayniqsa, kadrlar tayyorlash jarayonida yuksak texnikaviy-estetik madaniyatga ega bo'lgan mutaxassislarni yetishtirish, oliy texnika ta'limida texnika etikasi bo'yicha maxsus kurslar joriy etish va bo'lajak texnik mutaxassislarning texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifadir. Yoshlar orasida texnikaviy-estetik madaniyatni rivojlantirishning metodologik jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – texnikaviy-estetik tarbiyada har bir yoshning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanish darajasini inobatga olgan holda, texnikaga bo'lgan munosabatni shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan uyg'unlashtirish.

Integrativ ta'lim – texnikaviy-estetik masalalarni faqat texnik fanlarda emas, balki falsafa, huquqshunoslik, ekologiya va ijtimoiy fanlar bilan uyg'unlashtirib o'qitish.

Aks ettirish (refleksiya) metodlari – talabalar va o'quvchilar texnologiyadan foydalanish jarayonida o'z qarorlarini axloqiy jihatdan tahlil qilish va baholash ko'nikmasini egallashlari zarur.

Case-study va loyiha asosida o'qitish – texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish oqibatlari, texnik-axloqiy dilemmalar bo'yicha real va simulyatsiya qilingan vaziyatlarni tahlil qilish orqali amaliy yechimlar ishlab chiqish.

Axborot madaniyati va raqamli gigiyena – yoshlarni internet va raqamli texnologiyalarni xavfsiz, mas'uliyatli hamda konstruktiv maqsadlarda qo'llashga o'rgatish.

Global va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish – texnoetika sohasida jahon miqyosidagi ilg'or yondashuvlarni milliy madaniyat va mentalitet bilan moslashtirish.

Monitoring va baholash – yoshlar orasida texnikaviy-estetik madaniyat darajasini muntazam o'rganib borish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta'lim dasturlarini shu natijalar asosida takomillashtirish.

Ushbu metodologik yondashuvlar texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishda nafaqat texnik bilimlarni, balki insonparvarlik, mas'uliyat va axloqiy pozitsiyani ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Texnika tabiatini anglash nafaqat ilmiy-texnik, balki chuqur falsafiy masaladir. Chunki texnika – bu jamiyatning moddiy ishlab chiqarish vositalarini yaratish jarayoni bilan bir qatorda, uning ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasini ham ifodalaydi. Texnikaviy-estetik madaniyat — texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanishda nafaqat samaradorlikni, balki estetik uyg'unlikni, ekologik muvofiqlikni va axloqiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, texnikaviy-estetik madaniyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

Inson va texnika o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash – texnika inson hayotining sifatini oshirishi, ammo uni texnologiyaga qaram qilib qo'yimasligi kerak.

Madaniy qadriyatlarni saqlash – texnologik yangiliklar milliy va umuminsoniy madaniyat asoslariga zid bo'lmasligi lozim.

Tabiatga ehtiyotkor munosabat – texnologik rivojlanish ekologik muvozanatni buzmasligi, aksincha, uni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Estetik uyg'unlik – texnik yechimlar nafaqat funksional, balki estetik jihatdan ham inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim.

Axloqiy mas'uliyat – texnika va texnologiyalar yaratuvchilarining qarorlari jamiyat farovonligiga xizmat qilishi zarur.

Natijada, texnikaviy-estetik madaniyatni rivojlantirish jamiyatning nafaqat texnik salohiyatini, balki ma'naviy, estetik va ekologik uyg'unligini ham ta'minlaydi. Bu esa zamonaviy sivilizatsiyada texnika va inson o'rtasida sog'lom, uyg'un va mas'uliyatli aloqalarni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

XULOSA

Hozirgi zamon odami texnikada tabiat qonunlarining amal qilishini ham, o'z muhandislik ijodini ham ko'ra boshladi. Bu yerda gap texnikaning alohida texnologik talqini haqida emas, balki uning madaniy mavjudligi va ijtimoiy bog'liqligi haqida ketmoqda. Texnika turli darajada va turli "mantiq"larga muvofiq yashaydi. Bir tomondan, u ichki texnologik mantiqqa ko'ra ishlaydigan murakkab mexanik va texnologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, u inson ongining ijod mahsuli sifatida - g'oya, maqsad va muhandislik tafakkurining samarasi bo'lib yashaydi. Uchinchidan, texnika tabiat jarayonlarining davomchisi sifatida, ya'ni inson tomonidan qayta yaratilgan tabiiy mexanizmlar sifatida amal qiladi.

Madaniyat doirasida texnika faqat "ehtiyot va zaruriyat qonunlari"ga bo'ysunmaydi; aksincha, u g'oyalar, ongning madaniy shakllari, dunyo haqidagi tasavvurlar va ijtimoiy qadriyatlar mantig'iga muvofiq yashaydi va rivojlanadi. Texnika madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uning estetik, axloqiy va falsafiy jihatlari bilan uyg'unlashgandagina insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Biroq ushbu mantig'ining noto'g'ri talqin qilinishi, texnikaning gumanistik funksiyalarining o'zgarishi, uning inson uchun qulaylik yaratishdan ko'ra ustunlik va hukmronlik vositasiga aylanishi texnikaviy-estetik madaniyatni rivojlantirish vazifalarini yanada dolzarblashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Беликов В.А. Философия образования личности: деятельностный аспект. – Москва.: Владос, 2004
2. Дука С.И. Социокультурные аспекты становления информационного общества. Автореферат диссертации... докт. социолог. наук. – СПб., 2006
3. Мемфорд Л. Техника и природа человека // Новая технократическая волна на Западе. – Москва.: Прогресс. 2012
4. Попкова, Н.В. Глобальные проблемы современности и технологическое развитие / Н.В. Попкова // Вестник Московского Университета. Серия 7. Философия. – 2005
5. Содиқов М., Фуломов А., Серикбоев М. Ахборот муҳофазаси. //Мунозара, 3-сон 2005. –С. 30
6. Философия техники: история и современность. – М.: ИФРАН, 2007. – 20-29-б
7. Шермухамедова Н. Техника фалсафаси // Ўқув-услугий мажмуа. –Тошкент.: ЎзМУ. 2013. –С.45